

ShARTNOMA

22«11»2022 yil.

360-11-153-XT/2022-son

“BESHSHAXARTRANS” MChJ nizomi asosida xarakat qiluvchi nomidan boshqaruv raisi O’Yusupov kelgusi matnlarni «Bajaruvchi» deb nomlanuvchi bir tomondan va ikkinchi tomondan Beshariq tuman xalq ta’limi bo’limi «Buyurtmachi» o’z nizomi asosida raxbar V.Abduraxmonov shartnomani quyidagi ta’rif bandlari asosida tuzadilar.

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi»ning buyurtmasiga asosan o’ziga tegishli bo’lgan avtotransport vositalarida Beshariq tuman xalq ta’limi bo’limi tasarrufidagi №46-umumiyl o’rta ta’lim maktabi xududidan uzoq joylarda yashayotgan o’quvchilarni o’z vaqtida maktabga olib keladi va olib borib qo'yadi.

1.3 «Buyurtmachi» bajarilgan ishlari uchun shartnomaning quyi bandlarida kelishilgan avtotransport xaqini o’z vaqtida to’lab beradi.

2. XISOB - KITOB SHARTLARI.

2.1. Mazkur shartnomaning umumiyl qiymati 41 131 700 (Qirq bir million bir yuz o’ttiz bir ming yetti yuz) sum 00 tiyinni tashkil qiladi.

2.2. «Bajaruvchi» avtotransport ijaraga bergandan so’ng, o’zaro solishtiruv dalolatnomalariga asosan, ko’rsatilgan xizmatlar uchun «Buyurtmachi» pul o’tkazish yo’li bilan to’lovni amalga oshiradi. «Buyurtmachi» oldindan 2022 yil oyida oyida 30% mikdorida 12 339 510 so’m 00 tiyin avans to’lovni amalga oshiradi, xamda to’liq xisob-kitobni yil davomida amalga oshiradi.

2.3. Xizmatlar uchun narx o’zaro belgilangan xolda belgilanadi. Bunda o’sha kunga xudduddagi o’rtacha bozor narxlari asos qilib olinadi. Agar davlat nazorat organlari tomonidan o’tkazilgan tekshirish va taftish ishlari natijasida ko’rsatilgan xizmatlar uchun belgilangan narxlari yuqori deb topilsa, ushbu farq «Bajaruvchi» zimmasidan qoplanadi.

3. TOMONLARNING MAJBURIYATI

3.1. «Buyurtmachi»ning majburiyati:

- Tashilgan yo’lovchilarni olib borib kelganligi to’grisida xujjatlarni xar kuni tasdiqlash.
- Kelishilgan so’m miqdorini to’lab beradi.

3.2. «Bajaruvchi» ning majburiyati:

- «Buyurtmachi» tomonidan berilgan buyurtmaga muvofiq zarur mikdorda va muddatda avtotransport ajratadi.
- «Buyurtmachi» avtotransportni yonilg’i bilan ta’minlangan taqdirda yonilg’ilar uchun xaq olmasdan xizmat xaqidan chiqarib tashlaydi.
- Transport xujjatini rasmiylashtirish va bu xujjatlarda ko’rsatilgan ma’lumotlarning to’g’riligi uchun mas’ul bo’lgan taraflarning shaxslari javobgardirlar.

4. XISOB - KITOB SHARTLARI

4.1. «Buyurtmachi» o’quvchilarni tashish uchun to’lovlarni shartnomaning 2.2 bandi muddatida amalga oshiradi.

4.2. Xizmat xaqi to’lash «Buyurtmachi» tomonidan xisob raqamiga yetarli mablag’ moliyalashtirilgandan so’ng amalga oshiriladi.

4.3. Avtotransport xizmat xaqisi soatga to’ldirilgan xujjatlar asosida xar bir bajarilgan xizmat uchun 1 soatiga 97700 sumni tashkil kiladi.

4.4. Avtotransport vositasini o’quvchilarni maktabga yetkazib borish va maktabdan olib kelish vaqt 421 soatbo’lib 41 131 700 so’mni tashkil qiladi.

5. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Taraflar ushbu shartnomaning 1.1, 1.2, 2.2 bandlarini uzirsiz sabablar bilan bajarmagan taqdirda ikkinchi tarafga shartnomaga asosan ko'rsatiladigan xizmat so'mmasining 20% miqdorida jarima to'laydi.

5.2. «Buyurtmachi» shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar xaqini ushbu shartnomaning 2.2 bandiga asosan to'lab bermasa, xar bir kechiktirilgan kun uchun 0.4% mikdorida penya to'laydi.

5.3. «Bajaruvchi» «Buyurtmachi» tomonidan pul o'tkazib berilgan kundan boshlab 10 kun muddat ichida ish bajarmasa, xar kun kechiktirilgan kun uchun 0,5% mikdorida penya to'laydi lekin shartnomaning 2.1 bandida ko'rsatib o'tilgan summasining 50% oshmasligi kerak.

5.4. Taraflar o'zaro kelishilgan xolda o'rtadagi nizoni xal qiladilar.

5.5. Taraflar o'z majburiyatlarini bajarmasdan ikkinchi tarafga to'lanadigan jarima va penyalardan tashqari moddiy zararni to'lab berishni xam kafolatlaydi.

6. NIZOLARNI XAL ETISH TARTIBI:

6.1. Kelishmovchiliklar va nizolar kelib chiqqan taqdirda taraflar qoidaga ko'ra mustaqil ravishda ularni sudgacha xal etish choralarini ko'radilar.

6.2. Taraflar kelishmovchiliklar va nizolarni xal etish uchun bevosita sudga murojat qilishga xaqlidirlar.

6.3. Ushbu shartnomani tuzish, bajarish, o'zgartirish va bekor qilish bilan bog'liq taraflar o'rtaida kelib chiqadigan, shuningdek yetkazilgan zararni qoplash to'grisidagi nizolar taraflarning o'zaro kelishuvi yoxud konun xujjalarda belgilangan tartibda xal etiladi.

6.4. Ushbu shartnomada nazarda tutilganidan boshqacha, taraflar kelishuvida ko'zda tutilmagan xolatlар yuz bergan taqdirda uni taraflar fuqarosi kodeksi va «Xujalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy - xuquqiy bazasi to'g'risida»gi konunga amal qilgan xolda xal qiladilar.

7. SHARTNOMA MUDDATI

7.1. Shartnoma ikkala tomonlar imzolanganidan so'ng kuchga kiradi.

7.2. Shartnomaning amal qilish muddati 2022 yil 25 dekabrgacha.

8. Fors - major xolatlari.

8.1. Fors-major xolatlар, jumladan yer qimirlashi, sel kelishi kabi tabiiy ofatlar, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan Yangi qonun va karorlarni qabul kilinishi natijasida kelib chikaradigan xolatlarda taraflar mazkur shartnoma va qo'shimcha kelishuvlar shartlarini bajarish mas'uliyatini o'z zimmalariga olmaydilar.

9. Ko'shimcha shartlar.

9.1. Shartnoma yuzasidan kelib chiqqan nizolar o'zaro xal qilinadi. O'zaro xal qilinmag'an takdirda Uzbekistan Respublikasi qonunlariga asosan Xujalik sudlari orqadi xal qilinadi.

9.2. Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, imzo qo'yilgandan keyin g'aznachilik boshqarmasi (bo'linmasi)da ro'yxatdan o'tkazilgandan so'ng qonuniy kuchga kiradi. Ikkala nusxa aynan bir xil va teng kuchga ega. Taraflarning xar birida mazkur Shartnomaning bir nusxasi mavjud.

9.3. Shartnoma barcha o'zgartirishlar ikkala tomonlama kelishilgan va shartnomaga qo'shimcha bitim imzolangan xolda qonuniy deb xisoblanadi.

10. TOMONLARNING KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH BO'YICHA

MAJBURIYATLARI

10.1 Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi; ya'ni tomonlar bir-biriga yoki davlat ishtirokidagi tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachilik qilish; moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

10.2 Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalari buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga kelganda darhol yozma ravishda (elektron pochta orqali) yoki ishonch telefoni orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan holatga oydinlik kiritish maqsadida

yozma izoh talab qilish huquqiga ega va murojaatni olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushintirish berishi yoki o'z fikrini bildirishi mumkin.

10.3 Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holatni pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin

10. Tomonlarning yuridik manzili va rekvizitlari:

«Bajaruvchi»

“BESHSHAXARTRANS” MChJ

Manzil: Beshariq t Sobirtepa MFY

Tel./faks

x/r 20208000900788743001

STIR 304974684 MFO 00797

Bank nomi Beshariq AT XALK BANKI

G'aznachilik bo'linmasining nomi Beshariq tumani YaGX 23402000300100001010

Bankning nomi:Markaziy bankning Toshkent shaxri Bosh boshqarmasi Xisob-kitob-kassa markazi (XKKM)

MFO:00014 G'aznachilik bo'linmasining sTiRi -201122919

raxbar



O' Yusupov

«Buyurtmachi»

Beshariq tumani xalq ta'limi bo'limi

Manzil:Beshariq sh Do'stlik ko'chasi № 8 -uy

Tel./faks -61 21 2 59

shxr 100022860302157092100075059

tashkilotning STIRI 200155197

IFUT 92100

raxbar

V.Abduraxmonov

	<p>Hujjat elektron raqamli imzo orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.</p>
Imzolovchi F.I.SH.	VOSIDJON ABDURAXMONOV RASULJONOVICH
Imzolangan sana	22.11.2022 10:02
Hujjat kodi	UK02541500
Hulosa kodi	PS1143307158

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

PS1143307158

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **HAQ EVAZIGA XIZMAT KO‘RSATISH ShARTNOMASI**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma’lumot: Beshariq tumani xalq ta’limi tomonidan 17.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Beshariq tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



X.B.ABDURAFIQOV

21.11.2022

**175289 лот юзасидан шаклланган дастлабки
баённоманинг муҳокамаси натижаси бўйича расмийлаштирилган электрон
баённомаси**

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги 276-сонли қарорига асосан дастлабки электрон баённома у расмийлаштирилган кундан бошлаб давлат харидларининг электрон тизимида муҳокама қилиш учун икки иш кунига жойлаштирилди.

Икки иш куни ичидаги иштирокчилар томонидан танлаш (тендер) ўтказиш натижалари бўйича эътиrozлар тушмаганлиги тўғрисида харид комиссияси аъзолари тегишли қарор қабул қилди.

Муҳокама тугаган сана:

16.11.2022 15:55

Комиссия раиси:

ABDURAXMONOV VOSIDJON RASULJONOVICH